

MALAY TILIDA ARAB O'ZLASHMALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI

Toshpo'latova Zarnigor

TDSHU malay tili o'qituvchisi

Toshpulatovazarnigor12.05@gmail.com

Annotatsiya. Har bir til lug'at tarkibida o'zlashma so'zlar muhim ahamiyat kasb etadi va o'zlashma so'zlar lug'at tarkibining asosiy muhim manbalaridan biri hisoblanadi. So'zlarning boshqa tillarga o'zlashish jarayoni tahlili tilshunoslikda til to'qnashuvi va tilning boshqa tillar bilan aloqasini tahlil qilish orqaligina amalga oshiriladi. Turli tillarda so'zlashuvchi insonlar o'rtasidagi muloqot tillarning bir-biriga ta'sir qilishi va o'zaro so'zlar o'zlashish jarayonini yuzaga keltiradi. Tilshunoslikda so'z o'zlashish jarayoniga bir qancha tarkibiy omillar ta'sir qiladi: strukturaviy umumiylik nuqtai nazaridan- lingvistik detallarning bog'lanish darajasi, so'z chastotasi, omonimlar, so'zning eskirganligi va semantik tafovutlar va ehtiyoj sezilgan atamaning (yangi atamaning) ushbu tilda yo'qligi, tarkibiy (ijtimoiy-madaniy) nuqtai nazardan esa so'nggi bir necha yil ichida malay madaniyatining chet el madaniyati bilan to'qnashuvi ma'lum darajada o'zgarishlarga olib keldi va tilda so'zlarning o'zlashish jarayoniga ta'sir o'tkazadi. Chet tilidan so'zlarni o'zlashtirish urush va mustamlakachilik, biznes, migratsiya, ta'lim va dinning tarqalishi kabi madaniy to'qnashuvlar tufayli yuzaga keladi.

So'zlarning o'zlashish jarayoni til taraqqiyotida tabiiy element sifatida mavjudligi tufayli ham yuzaga keladi. Agar biz dunyodagi har bir tilni tahlil qilib chiqsak, boshqa tillardan so'zlarni o'z lug'at boyligiga o'zlashtirmagan biron bir til yo'qligini bilib olamiz. Ushbu maqolada ham arab tilining malay tiliga ta'siri, arabcha o'zlashmalarining fonetik fonologik tasnifi va arab tilining malay tili taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'zlar, o'z qatlam, fonologiya, fonetika, Javi yozuvi, qadimgi malay tili

Annotation. Borrowing words is becoming more and more important in the vocabulary of each language, and it is one of the main sources of vocabulary. The analysis of the process of assimilation of words into other languages is carried out in linguistics only by analyzing language collisions and the relationship of language with other languages. In communication between people speaking different languages, the influence of languages on each other and their mutual assimilation can be traced. In linguistics, the process of word formation is influenced by several structural factors: from the point of view of structural generality - the degree of connectivity of linguistic details, the frequency of words, homonyms, word obsolescence and semantic differences, as well as the absence of the necessary term (new term) in this language, and from the point of view of structural (socio-cultural) - the relationship of Malay culture with foreign and this

to a certain extent led to changes that affected the process of assimilation of words. Borrowing words from a foreign language is due to cultural conflicts such as war and colonialism, business, migration, education and the spread of religions.

The process of assimilation of words also occurs due to their presence in the development of language as a natural element. If we analyze every language in the world, we will find that there is not a single language that does not assimilate words from other languages into its vocabulary. In this article, the influence of the Arabic language on the Malay language was analyzed, the phonetic, phonological classification of Arabic loanwords and the role of the Arabic language in the development of the Malay language.

Key words: loan words, own layer, phonology, phonetics, Jawi script, ancient malay language.

Аннотация. Заимствования слов становятся все более важным в лексике каждого языка, и оно являются одним из основных источников словарного запаса. Анализ процесса ассимиляции слов в другие языки осуществляется в лингвистике только путем анализа языковых столкновений и взаимоотношений языка с другими языками. В общении между людьми, говорящими на разных языках, прослеживается влияние языков друг на друга и их взаимное усвоение. В лингвистике на процесс словообразования влияет несколько структурных факторов: с точки зрения структурной общности - степень связанности лингвистических деталей, частота слов, омонимов, устаревания слов и семантические различия, а также отсутствие в данном языке нужного термина (нового термина), а с точки зрения структурной (социокультурной) – взаимоотношение малайской культуры с иностранной и это в определенной степени привело к изменениям, повлиявшие на процесс усвоения слов. Заимствование слов из иностранного языка происходит из-за культурных конфликтов, таких как война и колониализм, бизнес, миграция, образование и распространение религий.

Процесс усвоения слов также происходит из-за их наличия в развитии языка, как естественного элемента. Если мы проанализируем каждый язык в мире, то обнаружим, что нет ни одного языка, который не усваивал бы слова из других языков в свой словарный запас. В этой статье был проведен анализ влияние арабского языка на малайский язык, также была указана фонетическая, фонологическая классификация арабских заимствований и роль арабского языка в развитии малайского языка.

Ключевые слова: заимствования, собственный слой, фонология, фонетика, яванский алфавит, древнемалайский язык.

Malay tili - Malayziya, Indoneziya (Bahasa Indonesia nomi bilan tanilgan), Brunei Darussalam va Singapurning milliy tili. Dunyoda tildan foydalanish statistikasiga ko'ra, malay tilida so'zlashuvchilar soni 300 milliondan oshadi va dunyodagi eng muhim tillarda so'zlashuvchilar soni bo'yicha mandarin, ingliz va hind/urdu tillaridan keyin to'rtinchi o'rinda turadi.

Malay tili avstroneziya tillari oilasiga mansub bo'lib, Formosa yoki hozir Tayvan oroli nomi bilan tanilgan joy ushbu til oilasining kelib chiqish joyi hisoblanadi. Keyinchalik esa bu til oilasi janubga, Filippin orollariga tarqalib malay-polineziya deb nomlangan til oilasi tarmog'ini hosil qilgan. Tilning bu tarmog'i taxminan 5000-4000 yil oldin mavjud bo'lgan. Keyin yana janubga, ya'ni Shimoliy Borneoga tarqalgan va u yerdan g'arbga va janubga tarqalgan.

Malay tili qadimgi malay tili davridan boshlab sanskrit tili ta'sirida birinchi chet tili o'zlashmalarini qabul qila boshlagan bo'lib, aynan malay tilining birinchi tarqqiyot davri boshlanishiga malay tilshunos olimlari sanskrit tili ta'sirini sabab qilib ko'rsatishgan. Keyinchalik klassik malay tili davriga kelib, arab tili ta'siri ostida bo'lgan. Buning asosiy sababi Janubiy sharqiy osiyo hududlariga islom dinining kirib kelishi va aholining katta qismi ushbu dinni qabul qilishi asosiy sabab hisoblanadi. Islom dini Janubiy Sharqiy Osiyo hududlariga arab tilini ham olib kiradi, shu sababli malay tilida ham turli arabcha o'zlashmlar yoki arabiy qo'shimchalar o'zlashtirish jarayoni kuzatiladi. Bu jarayon esa o'z navbatida arab tilining malay tiliga ta'sirini orttirib malay tilining ikkinchi tarraqiyot davrini boshlab bergan. Portugal va Ingliz mustamlakasi davridan boshlab esa malay tilida ingliz, yapon va xitoy(Malayziya aholisining katta qismi xitoyliklar bo'lganligi uchun malay tilida xitoycha so'zlarni uchratish mumkin) tillari ta'sirini va o'zlashish jarayonini kuzatishimiz mumkin. Malay tilining dinamik tabiati tufayli malay tili chet tillarini osongina qabul qiladi va o'zlashmalar malay tili lug'atini bilvosita boyitadi.

So'z o'zlashish jarayoni asosan malay tilida 2 xil ko'rinishda bo'ladi:

a. Imlo va talaffuzni o'zgartirish orqali to'g'ridan-to'g'ri so'z o'zlashishi:
psychology – psikologi

b. Chet so'zning ma'nosini yoki tushunchasini olib, tarjimani o'zlashtirish:
asal oyi- bulan madu

Quyida malay tilining boshqa tillardan so'zlarni o'zlashtirilishining bir qancha sabablarini tahlil qilimiz:

a. Biror narsani nomlash, yangi tushunchani atash zarurati, chunki malay tilida ushbu tushuncha yoki atamaga mos ekvivalent so'zning mavjud emasligi: masalan: *syurga,(jannat) camca,(qoshiq) mee(lapsha, ammo hozir zamonaviy malay tilida mi ko'rinishida qo'llaniladi), taubat(tovba, tovba qilmoq)*

b. Malaycha so'zlarning chet tillari ma'nosiga mos kelmasligi:

Misollar: *shifokor (tabib), politsiya (mata-mata), radio (tetuang udara)*

c. malay tilidagi ba'zi eskirgan so'zlarning hozirgi ma'nosiga mos kelmasligi, yoki malay yoshlari tomonidan chet tili so'zlarining og'zaki nutqda tez-tez qo'llanilishi;

d. Chet tillaridan foydalanish chastotasi malay tilidagi so'zlardan yuqori, chunki ular turli xil ma'nolarga ega ekanligi;

Arab savdogarlari va voizlari tomonidan islom dini malay olamiga(Janubiy Sharqiy Osiya) kirib kelishi bilan arab tilining ta'siri malay tiliga singib ketdi. Malay xalqining islom dinini qabul qilish jarayoni muammolarsiz kechgan chunki,

Malayziya hududlariga islom dinining kirib kelish davri Shrivajaya sultonligining gullab yashnagan davriga to'g'ri kelgan va islom dini targ'ibotchilari ta'sirida saroy ahli islom dinini osonlik bilan qabul qilgan bu esa o'z navbatida oddiy xalqning ham saroy ahliga ergashishiga olib kelgan. Islom dinining kirib kelishi nafaqat e'tiqodlarni o'zgartirgan, balki Malayziya madaniyati, adabiyoti va tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Arab tilining malay tiliga ta'siri sanskrit tiliga nisbatan kattaroq bo'lgan, sababi esa arab tili malay xalqining e'tiqodi va qonun-qoidalari yashash tarziga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Arab tilining malay tiliga ta'siri faqat ikki til orasida so'zlarning o'zlashish jarayonida emas balki, yozuv tizimida ham ko'rishimiz mumkin. Arab tilining eng muhim ta'siri javiy yozuvining yaratilishidir. Malay tili uchun yozuvda arab yozuvidan olingan va 6 ta harf bilan qo'shilgan javiy yozuvi qo'llanilgan. Javiy yozuvda islomiy adabiy asarlar, diniy kitoblar yaratilgan bo'lim rumi(lotin) yozuviga o'tilgunga qadar aynan javiy yozuvidan foydalanilgan. Hozirda ham malay xalqi orasida ushbu yozuvni biladiganlar juda ham ko'pchilikni tashkil qiladi.

Arab tilining malay lug'at boyligiga ta'siri

Malay tili lug'atida arabcha so'zlar juda ko'p bo'lib, ayniqsa diniy masalalar va atamalarni o'z ichiga oladi. masalan: *Doa(duo), hadis(hadis), haji(hoji), murtad(murtad, dindan chiqan inson), rukuk(ruku), hisab(hisob –kitob), ilmu(ilm, bilim), sejarah(tarix), soal(savol, muammo), tarikh(sana), akal(aql), faham(tushunmoq, anglamoq), fakir(kambag'al), halal(halol), haram(haram), zalim(zolim), fitnah(fitna), hormat(hurmat, hurmat qilmoq), kaum(qavm, oila a'zolari), kerabat(qarindosh), maaf(uzr, kechirim so'ramoq), salam(salom), sedekah(sadaqa), tahniah(tabrikلامoq, tabrik), akhirat(oxirat), alam(tabiat, atrof-muhit), haiwan(hayvon, asosan uy hayvonlari tushuniladi), dunia(dunyo), wajah(yuz, tashqi qiyofa), wujud(bor bo'lmoq, tana), roh(ruh).*

Malay alifbosida mavjud bo'lmagan ba'zi tovushlar arab harflarining tallafuzi asosida o'zlashtirilgan va aynan malay xalqi so'zlarni to'g'ridan to'g'ri yoki fonetik o'zgarish asosida qabul qilgan. Malay tilidagi o'zlashma so'zlarning va so'z o'zlashish jarayonining o'ziga xos xususiyati bu malay xalqining ushbu chet tilidagi so'zni qanday talaffuz qilganligida ya'ni o'zlashtirilayotgan so'z malay xalqlari tomonidan qanday talaffuz qilinsa yozuvda, imloda va talaffuzda ham shunday qabul qilingan:

/dh/ : dhaif, hadhirat, haidh malay tilida : daif, hadirat, haid ya'ni dh dan faqatgina d tovushi qabul qilingan

/f/ : fajar, fakir, daftar, kafir, arif- to'g'ri-to'g'ri o'zlashtirilgan

/gh/ : ghaib, ghairah, loghat, maghrib –malay tili lug'atida g' ga yaqin tovushning bo'lmaganligi arab tilidagi ushbu tovushni o'zlashtirilishiga sabab bo'lgan.

/kh/ : khasiat, khidmat, akhbar, tarikh—malay tilida x tovushining mavjud emasligi kh tovushini o'zlashtirilishiga sabab bo'lgan

/q/ : qadak, qadar, qunut, baqa, wuquf--- malay tilida q undosh tovushi mavjud emas va asosan faqat arab tilidan o'zlashgan so'zlardagina mavjud.

/sy/ : syarat, syiar, asyik, masyarakat, nusyuz sh harfi malay tilida aynan sy ko'rinishida o'zlashtirilgan

/th/ : thabit, thalatha, ithnin, bahath, hadath malay tilida sabit, salasa isnin, bahas, hadis—arab tilidagi th malay tiliga s ko'rinishida o'zlashgan va yuqoridagi barcha so'zlarda s deb talaffuz qilinadi.

/z/ : zikir, zuriat, bazir, khazanah- to'g'ridan to'g'ri o'zlashgan.

Malay tiliga o'zlashtirilgan 6 ta arab affiksi va qo'shimchalari mavjud bo'lib ular malay tilida hozirgacha faol foydalaniladi:

-**ah** : muslimah, hajah, qariah, ustazah

-**at** : hadirat, mukminat, muslimat

-**I** : abadi, amali, azali, insani, mithali

-**iah** : alamiah, batiniyah, jasmaniah, lahiriah

-**in** : hadirin, mukminin, muslimin, musyrikin

-**wi** : duniawi, maknawi, nabawi, ukhrawi

Yuqorida keltirilgan tahlil orqali umumiy xulosa qilishimiz mumkinki, arab tilining malay tiliga ta'sirini nafaqat so'z o'zlashtirish jarayoni ya'ni lug'at boyligida, balkijarayonida balki so'zlar talaffuzi va yozilish jarayonida ham ko'rishimiz mumkin. Arab tilidan malay tiliga juda ko'plab so'zlar o'zlashtirilgan misol uchun(Arab-Malaycha): *abun -abah* , *kursiyyun - kerusi* , *shukran - syukur* , *jadwal-jadual* , *shakhsiiyyah -sahsiah* , *qamus - kamus*,*waqtu - waktu* , *mawt - maut* , *wajh- wajah* , *janin - janin* , *asal - asal* , *kitab – kitab*. Malay tilidagi arabcha o'zlashmalar Malayziyalik tilshunos olimlar tomonidan ham eng ko'p tadqiq qilingan bo'lib, ulardan eng ahamiyatlisi Uilkinsonning 1904-yilda arabcha o'zlashalar imlosini tadqiq qilib, "Ejaan Sekolah" nomli asari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asmah Haji Omar. 2004. Muafakat bahasa: Sejarah MBIM/MABBIM sebagai Pembina Bahasa. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.
2. Abbas Mohd Shariff. (1988). Pengaruh bahasa Arab dalam bahasa Melayu. Sekata, 5(1), 20-33.
3. Or M.A. J. Beg, Arabic Loan Words in Malay. Universiti Kebangsaan Malaysia, 1977.
4. I. Prof. Cesar Adib Majul,. Theories on the Introduction and Expansion of Islam in Malaysia," The International Association of History of Asia, Second Biennial Conference Proceedings, Taipei, 1962
5. Prof. Mohd. Taib Osman, "Asas dan Pertumbuhan Kebudayaan Malaysia". Kementerian Kebudayaan, Belia dan Sukan. K.L. 1974.
6. Hamdan Hassan, "'Proses Peminjaman Arab dalam Bahasa Melayu. Dewan Bahasa. Jilid 16, Bil. 7. 1972,